

YOSHLAR DUNYOQARASHIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

Salayeva Aziza Muhammadmurodovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Hakimova Muyassar Rashidovna

Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh-avlod dunyoqarashida milliy o'zligimizni namoyon etuvchi milliy qadriyatlarimizning tutgan o'rni, shuningdek, umuminsoniy qadriyalar va milliy qadriyatlarimiz uyg'unligida yosh -avlodni tarbiyalash xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Yosh-avlod, milliy qadriyatlar, axloq, tarbiya, mehmondo'stlik, milliylik, o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlar, tinchlik, millatlararo totuvlik.

Dunyoda mamlakatlar ko'p, ularning har birida o'ziga xos mentalitet, qadriyatlar, urf-odatlar va an`analari bor. Ushbu urf-odat, qadriyat va an`analarda bir xalqning necha ming yillik o'tmishi, tarixi namoyon bo' ladi. Biz xohlaymizmi yo'qmi, ko'p qadriyatlar, urf-odatlar ijtimoiy taraqqiyot qonunlariga monand o'zgarib, yangilanib boradi, ammo ular butunlay yo'qolib ketmaydi, ularni saqlab qolishning, kelgusi avlodga yetkazishning imkoniyati mavjud. Bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiyligi an`ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror bir narsaning an`anaga, ayniqsa qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar va avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an`ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi. Xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini, oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an`ana va qadriyatlari hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan, o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish muhim vazifalardan biri etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni

Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta’ minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh-avlod tarbiyasi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi. “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu- yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘ liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim-yoshlardir. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘ un bo‘lsin. Lekin, ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘zotlarning avlodimiz, degan da’ vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”¹, deya ta’kidladi Prezidentimiz.

O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosati barkamol avlod, dunyoqarashi keng shaxslarni tarbiyalash hamda komil inson g‘ oyasi-milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzodga xos eng yuksak ma’ naviy ezgulikka undaydigan oljanob shaxsn tarbiyalashga qaratilgandir.

Asosiy qism

Bugungi kunda biz hech ikkilanmasdan ayta olamizki, yurtimiz— xavfsizligi ta’ minlangan, tinch, osmoni musaffo, har jabhada rivojlanayotgan o‘lkalardan biri. Bunday tinch yurtda yashayotganimizga shukurlar bo‘lsin. Fan, ta’ lim, san`at, adabiyot, madaniyat, tibbiyot, sanoat umumam har bir sohada bugun yangi-yangi innovatsiyalar, yangilanishlar aytib adog‘ iga yeta olmaymiz. Xalqimizning buyuk istiqlol kurashchilari bo‘lgan jadidlarimiz orzu qilgan kunlarda biz bugun yashayapmiz. Biz mustaqillik sharofati bilan eski tuzumning kommunistik mafkurasidan halos bo‘ldik, o‘zimizning o‘zligimizni ota-bobolarimizning kim ekanligini bildik. Qiyinchiliklar ila biz o‘z tilimiz, madaniyatimizni toptalishlardan xalos etilishiga erishdik. Milliyligimizni tarannum etuvchi asl qadriyatlarimiz, urf-odatlарimizni angladik.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, u millatning tili, madaniyati va ma’ naviyati, urf-odatlari, an`analarini, jamiki moddiy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladi. Milliy qadriyatlarimiz istiqlol madaniyatini yaratishimizda negiz bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu hol milliy mafkuramizda ham o‘z ifodasini topib, jamiyatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Qaysi mamlakatda bo‘lmasin, jamiyatdagi yangilanish doimo madaniy merosning uyg‘onishiga olib keladi. Yoshlarni o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga,s og‘ lom dunyoqarashga, mustaqil irodali, boy ma’ naviyatga ega insonlar qilib, har qanday mafkuraviy tazyiq va ma’ naviy tahdidlarga zarba berishda tayyor etib tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib hisoblanadi. Yoshlarda jamiyatning ma’ naviy hayotini keljak-avlod ruhi bilan bog‘ lab shakllantirish, ularning ma’ naviy olamida

¹ Sh.Mirziyoyev-“Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”.Toshkent,“O‘zbekiston”-2017.157-158-betlar

bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘ lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur. Jamiyat tayanchi bo‘lgan oila bolalar, murg‘ ak qalblar uchun qadriyatlarga bo‘lgan dastlabki tasavvurlarni shakllantirishda mayoq vazifasini o‘taydi.

Milliy qadriyatlаримизнинг бири бо‘лган ота-онани ардоqlash, salom berish, kattalarni hurmat qilish kabilар ilk bora oilada shakllanadi. Eng avvalo, ota-onaning bu boradagi xizmati katta. Ollohning insonga baxsh etgan ilk ne`mati -ota-ona muhabbatи bo‘ladi. Kishi millati yoki dinidan qat`i nazar yaratganni seva olsa, ota-onasini xorlab qo‘ymaydi, ularning qadriga yetadi. Sharqona tarbiyaning asosini ham eng avvalo, ota-onaga bo‘lган hurmat, e`zoz-ardoq tashkil etadi. Turkiy adabiyotning yetuk vakillaridan бири bo‘lmish Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida бу xususda quyidagi fikrlarni bildirgan. “О‘з farzanding sening haqingda qanday bo‘lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo‘lg‘ il, nedinkim, sen ota-onangga nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga, ota-ona daraxtga o‘xshaydur”². Ko‘rinib turibdiki, ota-onani qadrlash qadimdan ham farzandlar uchun eng muhim vazifa bo‘lib kelgan.

Afsuski, ayrim yoshlarning ushbu muqaddas qadriyatimizga nisbatan e`tiborsizligi ko‘zga tashlanmoqda. Go‘yoki, ular birdan kamolga kelib qolgандек, ota-onasiga ovozini ko‘tarib gapirish, ularning tanbehlarini noo‘rin tushunib, jerkib berish holatlari tez-tez uchrab turibdi. Ko‘pchilik yoshlarning bunday muomalaga ega bo‘lib qolishlariga yoshlар dunyoqarashining sayozligi, turli xil axborot oqimlarining ko‘payib ketishi, ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rayotgan milliy mentalitetimizga zid bo‘lган videoroliklar, zo‘ravonlik, aggressivlikni rag‘ batlantiruvchi jangari filmlar va hattoki behayo klip va musiqalar ham sabab bo‘lmoqda. Yevropaning ayrim mamlakatlaridagi yashash g‘ oyasi bo‘lган individuallikni bizning yoshlаримиз ko‘r-ko‘rona qabul qilishmoqda, бuning oqibatida jamoaviylikni rad etishib, faqat o‘zini o‘ylash, egoistik mafkuralar bilan yashashlari jamiyatda befarqliкni yuzaga keltirmoqda. Bunday holatlar ko‘plab yoshlarni oila deb atalmish muqaddas maskanni, oila a’ zolarini yetarlicha ardoqlamasliklari, qadrlamasliklariga sabab bo‘lmoqda, desak, mubolag‘ a bo‘lmaydi.

Eng muhim qadriyatlаримиздан бири bu-salom berish odobidir. Salom berish -sunnat, alik olish vojib sanalishi hammamizga ma’ lum. Salom bu o‘ziga xos duo, ibodatdir. Bu Qur’oni Karimda ham o‘z aksini topgan. Zero, Payg‘ambarimiz alayhissalomdan ham “qaysi amal eng yaxshi amaldir” deb so‘raganlarida “tanigan va tanimaganga taom va salom bermog‘ ing,”³ deb javob bergenlar. Salom berish va alik olish orqali insonning

² Kaykovus.,,Qobusnoma,,asari „O‘ qituvchi,, nashriyot-matbaa ijodiy uyi.Toshkent -2006.36-bet

³ Tohir Malik „Odamiylik Mulki,,Sharq nashriyoti Toshkent 2014.565-bet

odob-axloqi namoyon bo‘ladi. Salom berishning shaklida, tashqi ko‘rinishda har qaysi millatning o‘zigagina xos tomonlari bo‘lishi mumkin. Bizda o‘ng qo‘lni chap ko‘ksiga qo‘yib, tavoze bilan salomlashishning go‘zal odobi mavjud. Salom berish faqat yaxshi odob, xulq yoki axloqni ko‘rsatib qolmasdan, odamlar bilan o‘zaro yaxshi aloqa o‘rnatishda ham muhim qadriyat sanaladi. Odobning boshi salom deb ham bejizga aytilmagan.

Bugungi kunda yoshlar xorijliklarning kiyinishi, yurish-turishi, muomala madaniyatini ko‘r-ko‘rona o‘zlashtirib olayotganligi, milliyligimizga salbiy ta’ sir o‘tkazishi mumkinligi xavotirlidir. Aslida yoshlar o‘z milliy kiyinishimizni, zamon ruhi va talabi ehtiyojidan kelib chiqqan holda rivojlantirish va uni jahonda ommalashuviga o‘z hissalarini qo‘shishlari zarur. Mamlakatimizda milliy liboslar targ‘ibotini kuchaytirish, yosh-avlod ongiga millat ruhiyatini singdirish, ular hayotiga o‘zbekona mentalitet me`yorlarini olib kirish hamda milliy liboslarga mehr uyg‘otish maqsadida turli xil milliy liboslar festivali va shu ko‘rinishdagi tadbirlarning tashkil etilayotgani ham yoshlarda milliy iftixor. milliy qadriyatlarimizga hurmat tuyg‘usini jo‘sh urdirishga zamin yaratadi.

Milliy qadriyalar takomillashib, sayqal topib umuminsoniy qadriyatlarga ham aylanib boradi. Shu o‘rinda umuminsoniy qadriyatlarga to‘xtalib o‘tsak.

Umuminsoniy qadriyatlar-jahondagi barcha odamlar, xalqlar va davlatlar uchun umumiylar qadrlash mezoni hisoblangan, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar tizmini ifoda etadigan tushuncha. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko‘lamli va serqirra tushunchadir. U ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt-saodat kabi umumijtimoiy ma’nomazmun kasb etadigan tushunchalardangina iborat emas. Umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati shundaki, u barcha xalqlar uchun bir bo‘lgan yashash qoidalari, tamoyillarini o‘rgatadi. Bugungi kunda umuminsoniy qadriyatlar barcha uchun umumiylar mezon bo‘lib qolganining bir qator sabablari bor: sayyoramizning dunyodagi barcha kishilar uchun, ularning irqi, millati, e`tiqodi va boshqa tabiiy-tarixiy hamda ijtimoiy belgilardan qat`i nazar, eng umumiylar va shu bilan birga, cheksiz koinotdagi mo‘jazgina makon ekani tobora yaqqolroq his etila boshlangani, dunyodagi ijtimoiy xilma xillik, siyosiy va mafkuraviy rang-baranglik, turli xil ehtiyoj, qiziqish, maqsad, intilish, xatti-harakat, umumiylar ma’naviy mezonlarga muhtojlik sezila boshlagani, dahshatli qirg‘in qurollari, yadro urushi, ekologik bo‘hron va ma’naviy tanazzul kabi tahdidlar bilan yuzma-yuz kelishi natijasida sayyoramiz aholisi umumiylar genofondining taqdiri xavf ostida qolgani, kishilarning qanday ijtimoiy tuzum va davlatlarda yashashidan qat`i nazar, hamma joyda eng asosiy maqsad inson, uning hayoti, manfaatlari, haq-huquq va erkinliklari, odamlar uchun mazmunli, to‘kin va farovon turmushni ta’minlashda butun jahon ahamiyatiga molik universal texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari, umumsayyoraviy hamkorlik zarurligi tobora ko‘proq anglab olinayotgani bilan izohlanadi.

Yosh-avlodni milliy va umumuminsoniy qadriyatlar og‘ushida tarbiyalashni bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrimiz taqazo etmoqda. Shu o‘rinda Mortimer Adlerning

quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir. “Biz agar yuqori qadriyatlarga intilmasak, pastkilari bizni ezib qo‘yadi”⁴. Ya’niki, biz umuminsoniy qadriyatlar negizida milliy qadriyatlarimizni boyitishimiz zarur.

Xulosa

Xulosa qilib shu narsani ta’kidlamoqchimizki, biz yoshlar internetdagи turli chorlovlarga ishonsak, chet elning jangari va axloqiy buzuq filmlarini tomosha qilsak, asab va qonni junbushga keltiruvchi ajnabiy musiqalarni tinglasak, o‘zligimizdan yiroqlashib boraveramiz. Aksincha, o‘z bilimlarimizni doimiy ravishda mustaqil ta’lim hisobiga oshirib borsak, boy ma’naviy merosimiz, an`analarimiz, qadriyatlarimizni chuqur o‘rgansak, ularni keng targ‘ib qilsak vatanimiz, millatimiz, xalqimiz oldidagi farzandlik burchimizni ado etgan bo‘lamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev ”Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” Toshkent, “O‘zbekiston” -2017.157-158-betlar
2. Kaykovus. “Qobusnoma” “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2006.36-bet
3. Tohir Malik “Odamiylik Mulki” Sharq nashriyoti, Toshkent 2014.565-bet
4. <https://hikmatlar.uz/tag/qadriyat>
5. Hakimova, M. (2025). Ikkinchи jahon urushi davrida Surxon vohasi ayollarining maorif va madaniyat sohasiga qo ‘shgan munosib hissalari. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA ’LIMI JURNALI*, 3(6).

⁴ Mortimer Adler